

DUNYO MIQYOSIDAGI ISHCHI-XODIMNING MAXFIYLIGI TO'G'RIDA BILDIRUV

So'nggi tahrir: 2025-yil 10-iyun

Johnson Controls International plc va uning sho'ba kompaniyalari (birgalikda, **Johnson Controls**) ma'lumotlaringizni maxfiy saqlashning g'amini yeydi, hamda ma'lumotlardan halol foydalanish tamoyillariga va ma'lumotlar daxlsizligi to'g'risida qonunlarga muvofiq Shaxsiy Ma'lumotlaringizni o'zlashriish majburiyatini oladi.

Ma'lumotlarni maxfiy saqlash bo'yicha majburiyatimiz belgisi sifatida, Korxona doirasidagi (Korporativ) Majburiy Qoidalar ("KMQ") to'plamini qabul qildik. Bular dunyo bo'ylab sho'ba korxonalarimiz tomonidan o'zlashtirilganda Shaxsiy ma'lumotlaringiz himoyalaniishiga kafolat berish maqsadida, bizning dunyo miqyosidagi ma'lumotlarni maxfiy saqlash majburiyatlarini, jumladan shaxsiy ma'lumotlaringizni uzatish bo'yicha tutgan yo'nalishimizni va bu bilan bog'liq yakka (jismoniy) shaxs ma'lumotlarini maxfiy saqlash huquqlarini qamrab oladi. Bu KMQlar Evropa Shaxsiy Ma'lumotlarni Himoya qilish to'g'risida qonunning bajarilish ustidan nazorat Organi tomonidan tasdiqlangan. Siz KMQlarimiz bo'yicha [Maxfiylik Portali](#)-dan maslahat olishingiz mumkin.

1. Mazmuni

Bu umumiy bildiruv Johnson Controls o'z faoliyati davomida, ishchi-xodimlar, ishga talabgorlar, amaliyot o'tayotgan shogirdlar, sobiq xodimlar, boqimandalar, imtiyozli oluvchilar, pudratchilar, maslahatchilar va vaqtinchalik yollanma ishchilarga tegishli shaxsiy ma'lumotlarini qanday qayta ishlashini tushuntiradi.

Shaxsiy ma'lumot shaxsi aniqlangan yoki shaxsi aniqlanishi mumkin jismoniy shaxsga; o'sha jismoniy shaxsning ismi, taniqlik raqami, manzili to'g'risida ma'lumot, onlayn taniqlik belgisi, yoki jismoniy, psixologik, genetik, aqliy, iqtisodiy, ma'daniy yoki ijtimoiy taniqlik belgisi kabi taniqlik belgilar bo'yicha bilvosita yoki bevosita shaxsi aniqlanishi mumkin bo'lgan biriga daxldor har qanday ma'lumotlarni anglatadi.

Shaxsiy ma'lumotlarning maxsus toifalari (Maxfiy shaxsiy ma'lumotlar deb ham ataladi) irqiy yoki etnik mansublik, siyosiy qarashlar, diniy yoki falsafiy e'tiqod, kasaba uyushmalariga a'zolikni ochiqlovchi shaxsiy ma'lumotlarni va salomatlik yoki jinsiy hayotga taalluqli ma'lumotlar, genetik ma'lumotlar yoki biometrik ma'lumotlarni qayta ishlashni anglatadi.

2. Shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlochi xodimning taniqlik belgisi

Umuman olganda, shaxsiy ma'lumotlaringizni qayta ishlash uchun mas'ul Johnson Controls tashkiloti (ko'pincha "ma'lumotlar boshqaruvchisi" deb ataladi) siz bilan mehnat munosabatlaridagi Johnson Controls tashkilotidir (yoki agar siz xodim bo'lmasangiz, Johnson Controls tashkiloti ishingiz uchun mas'uldir). Agar sizda biror shubha bo'lsa, Kadrlar bilan ishlash departamentiga yoki Maxfiylik masalalari idorasiga (privacy@jci.com)-murojaat qilishingiz mumkin.

3. Shaxsiy Ma'lumotlarning toifalari

Inson resurslari va tadbirkorlik faoliyatlarining normal kechishi davomida, Shaxsiy ma'lumotlarning quyidagi toifalarini to'playmiz va 'o'zlashtiramiz:

Shaxsiy guvohnoma ma'lumotlari	Ismi-sharifingiz, tug'ilgan joyingiz, uy manzilingiz, tug'ilgan sanangiz, jinsingiz, ishga aloqador suratlaringiz, uy telefon raqamingiz va shaxsiy e-pochta manzilingiz kabi ma'lumotlar.
Davlat tomonidan berilgan shaxsni tasdiqlash raqamlari	Passport raqami, ijtimoiy sug'urta raqami va/yoki milliy ID (shaxsiy guvohnoma) raqami,
Mehnat qilish huquqiga oid ma'lumotlar	Immigratsiya maqomingiz, mehnat qilish huquqingiz va yashah maqomi to'g'risida batafsil ma'lumot.
Oila va favqulodda vaziyatlarda bog'lanish uchun batafsil ma'lumotlar	Oila a'zolaringiz va / yoki favqulodda vaziyatlarda bog'lanish ism(lar)i va bog'lanish ma'lumotlari.

Ish bilan ta'minlashga oid ma'lumotlar	Sizning ishlagan yillar, ish joylashgan manzil, ishchi xodimga beriluvchi shaxsini tasdiqlash guvohnomasi (ID), mehnat daftarchasi, ta'tilga chiqishlar va mehnat shartnomasiga aloqador ma'lumotlar.
Ta'lim va treyning bilan bog'liq ma'lumotlar	Ta'limdagi yutuqlari uchun berilgan mukofotlar, sertifikatlar va ruxsatnomalar, kasbiy tayyorgarlik ma'lumotlari va ish o'rnida malaka oshirish mashg'ulotlariga qantashishingizga tegishli ma'lumotlar.
Xodimni ishga yollash va ish tabiyatiga taaluqli ma'lumotlar	Kasbiy maqsad va intilishlar, ximat darajasining oshishi oldiga qo'yilgan maqsadlar, reyting ballari, izohlar, talab va taklif natijalari, kasbiy malaka, mehnat vositalari, kasb va ishni meros qoldirishni rejalashtirish, ko'nikmalar va kompetensiyalar hamda boshqa ishga taaluqli malakalar, hamda shu kabi ishga yollash va biografik ma'lumotlar kabi ma'lumotlar.
Johnson Controls aktivlaridan foydalanish bilan bo'liq ma'lumotlar	Foydalanishingiz, xususan, Johnson Controls kompyuterlaridan, mobil qurilmalaridan va telekommunikatsiya tizimlaridan, shuningdek, Internet orqali ishlab chiqiluvchi trafikdan foydalanishingizga tegishli ma'lumotlar.
Mobil qurilmalarni boshqarish uchun to'plangan ma'lumotlar	Johnson Controls mobil qurilmalar orqali boshqarish uchun dasturiy ta'minot tomonidan to'planadigan axborot, jumladan, ismingiz, mobil telefoningiz raqami, kompaniya email manzili, mobil aloqa operatoringiz mansub mamlakat va qurilmangizda o'rnatilgan korporativ ilovalarda mavjud axborot.
Muvofiqlikni nazorat qilish va tavakkalchiliklarni boshqarishga tegishli ma'lumotlar	Yozma hayfsanlar, tarjimai hol ma'lumotlarini tekshirish qaydnomalari va xavfsizlik ma'lumotlari kabi muvofiqlikni nazorat qilish va tavakkalchiliklarni boshqarish uchun talab qilnuvchi ma'lumotlar.
Ish haqi va to'lovlar yoki imtiyozlar bilan bog'liq ma'lumotlar	Oilaviy ahvoli, oylik va sug'urta ma'lumotlari, davlat tomonidan berilgan taniqlik belgilari yoki soliq raqamlari, bank hisobi batafsilliklari, hamda ishga daxldor imtiyozlar boy'icha ma'lumotlar, oila va boqimanda to'g'risida batafsil ma'lumotlar kabi ma'lumotlar.
Joylashgan yeri va ishtirokiga oid ma'lumotlar	Joylashuv va vaqt hamda davomat boshqaruviga taalluqli axborotlar.
Sayohat va pasportga tegishli ma'lumotlar	Siz amalga oshirgan [ish bilan aloqador] safaringiz bilan bog'liq ma'lumotlar, jumladan passport ma'lumotlari.
Tijorat bilan bog'liq ovoz/tasvir yozuvlari	Tijorat bilan bog'liq ovoz/tasvir yozuvlari, misol uchun, siz ishtirok etgan ushrashuvlar va/yoki prezentatsiyalar (taqdimotlar).

Bundan tashqari, Shaxsiy Ma'lumotlarning Maxsus Toifasini o'zlashtirishimiz mumkin, masalan:

Sog'liq va kasallik bilan bog'liq ma'lumotlar	Bu sog'liq ahvolidan darak beruvchi kasallik alomatlari, diagnoz, muaolaja va dori-vositalari, zarur o'rinlarda tibbiy ma'lumotnomalar va ih joyidagi jarohat va kasalliklarga oid axborotlarni o'zi ichiga oladi.
Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasiga oid ma'lumotlar	Kasbiy salomatlik va xavfsizlikka aloqador axborot.
Irq va millatga mansublik	Bu kabi ma'lumotlar qonun zaruriy deb topgan yoki yo'l qo'ygan joylarda to'planishi mumkin.
Biometrik axborot	Bu jumladan, filiallarimizda amaldagi qonunchilikka muvofiq shunday tizimlar ishlatilganda yuzni tanishga oid axborotni o'z ichiga oladi.
Jug'rofiy joylashgan joy to'g'risida aniq ma'lumotlar	Bu ma'lumotlarni lavozimingizga muvofiq zarurat tug'ilganda va qonun doirasida ruxsat etilganda, jumladan siz transport vositalarimizdan birini boshqarayotgan bo'lsangizda ishlatamiz.

Kasaba uyushmasiga a'zolik	Har qanday kasaba uyushmasiga a'zolingiz to'g'risida batafsil ma'lumotlar.
Sudlanganlik to'g'risida ma'lumot	Qonun yo'l qo'ygan joylarda jinoiy ayblovlar va ta'qiblar, shuningdek, biografik ma'lumotlarni tekshirish uchun boshqa axborotlar.
[Muayyan yurisdiksiyalar] Passport raqami, ijtimoiy sug'urta raqami yoki milliy ID (shaxsiy guvohnoma) raqami	Ba'zi yurisdiksiyalarda, passport raqamingiz, ijtimoiy sug'urta raqami yoki milliy ID (shaxsiy guvohnoma) raami maxsus toifadagi va/yoki shaxsga tegishli maxfiy ma'lumotlar sifatida tavsiflanadi
[Faqat Hindiston uchun] Maxfiy so'z va miliyaviy ma'lumotlar	Hindistonda parollar va moliyaviy ma'lumotlar (masalan, bank hisobvarag'i, kredit yoki debet kartasi yoki boshqa to'lov vositasi tafsilotlari) Maxfiy shaxsiy ma'lumotlar hisoblanadi.

Shaxsiy ma'lumotlarni bevosita o'zingizdan to'plashdan tashqari, Shaxsiy ma'lumotlaringizni boshqa manbalardan ham to'plashimiz mumkin, jumladan:

- Davlat tashkilotlari, tibbiy xizmatlar va imtiyozlar bo'yicha ta'minotchilar;
- Xizmat ta'minotchilari, masalan, biografik ma'lumotlar tekshiruvini amalga oshiruvchi kompaniyalar;
- Rahbarlaringiz, hamkasblaringiz yoki tayinlangan hakamlar; va
- Hamma uchun ochiq ma'lumotlar.

4. Ma'lumotlarni qo'llanish maqsadlari va ularni ishlatishning qonuniy asoslari

Biz quyida keltirilgan maqsadlarda shaxsiy ma'lumotlarni to'playmiz va ulardan o'z maqsadimizga ko'ra foydalanamiz. Qonun talab qilgan vaziyatlarda, biz oldindan bergan roziligingizni o'z ichiga olgan bir yoki ber necha huquqiy asoslarga tayanamiz. Axborotlarni muhofaza qilish to'g'risidagi Evropa qonunchiligiga rioya qilish maqsadida, biz quyida keltirilgan (qarang. "Mazkur axborotlardan o'z maqsadlarida foydalanishga asoslangan huquqiy asoslar") huquqiy asoslarga tayanamiz.

Shaxsiy ma'lumotlaringizdan foydalanish maqsadi	Ushbu maqsad uchun foydalanilgan shaxsiy ma'lumotlar	Ushbu ma'lumotlardan foydalanish uchun tayanilgan huquqiy asos
Kadrlar bo'limi va ish bilan ta'min etish: Bu ishchi kuchini boshqarish, ish haqi, kompensatsiya va imtiyozlar dasturlari, ish faoliyatini boshqarish, o'qitish va rivojlantirish, lavozimni oshirish va vorislikni rejalashtirishni o'z ichiga oladi.	Shaxsiy guvohnoma ma'lumotlari Davlat tomonidan berilgan shaxsni tasdiqlash raqamlari Mehnat qilish huquqiga oid ma'lumotlar Oila va favqulodda vaziyatlarda bog'lanish uchun batafsil ma'lumotlar Ish bilan ta'minlashga oid ma'lumotlar Ta'lim va treyning bilan bog'liq ma'lumotlar Xodimni ishga yollash va ish tabiyatiga taaluqli ma'lumotlar Ish haqi va to'lovlar yoki imtiyozlar bilan bog'liq ma'lumotlar Joylashgan yeri va ishtirokiga oid ma'lumotlar Shaxsiy Ma'lumotlarning alohida toifalari Sog'liq va kasallik bilan bog'liq ma'lumotlar	Qayta ishlash biz bilan shartnomani bajarish uchun zarur, masalan, ish haqingizni to'lash va biz bilan mehnat munosabatlaringizni boshqarish.

	Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasiga oid ma'lumotlar Biometrik axborot Jug'rofiy joylashgan joy to'g'risida aniq ma'lumotlar Kasaba uyushmasiga a'zolik Irq va millatga mansublik	Majburiyatlarni bajarish va mehnat qonunchiligiga muvofiq huquqlarni amalga oshirish uchun qayta ishlash zarur. Irq turli-tumanlik va inklyuzivlikni ta'minlash maqsadida qo'llanilganda, biz ochiq-oydin ma'qul bo'lish va rozilikka tayanamiz.
Kadr resurslaridan foydalanish va ishga yollash	Shaxsiy guvohnoma ma'lumotlari Davlat tomonidan berilgan shaxsni tasdiqlash raqamlari Mehnat qilish huquqiga oid ma'lumotlar Ish bilan ta'minlashga oid ma'lumotlar Ta'lim va treyning bilan bog'liq ma'lumotlar Xodimni ishga yollash va ish tabiyatiga taaluqli ma'lumotlar Shaxsiy Ma'lumotlarning alohida toifalari Irq va millatga mansublik	Qayta ishlash biz bilan shartnomani bajarish, masalan, biz bilan mehnat munosabatlaringizni boshqarish va ishni taqsimlash uchun zarur. Ma'lumotlaringizdan foydalanish siz bilan shartnoma tuzishimizda qadam tashlash uchun zarurdir. Misol uchun, bizda ishlashga topshirgan taqdiringizda. Irq turli-tumanlik va inklyuzivlikni ta'minlash maqsadida qo'llanilganda, biz ochiq-oydin ma'qul bo'lish va rozilikka tayanamiz.
Umumlashtirish, egallab olish va begonalashtirish	Shaxsiy guvohnoma ma'lumotlari Ish bilan ta'minlashga oid ma'lumotlar Ish haqi va to'lovlar yoki imtiyozlar bilan bog'liq ma'lumotlar <i>Qo'shib yuborish, birlashtirish yoki sotish tabiyatiga bog'liq holda, 3 Bo'limda sanab o'tilgan Shaxsiy Ma'lumotlarning boshqa toifalari qo'llanilishi mumkin.</i>	Ma'lumotlarni qayta ishlash qo'shib yuborish, birlashtirish va sotish munosabati bilan qonuniy manfaatlarimizni ro'yobga chiqarish uchun zarurdir.
Huquqiy normalarga rioya qilish , jumladan, korporativ boshqaruv, davlat organlarining ma'lumot berish haqidagi so'rovlarini bajarish, garovlar, undirishlar va soliq qonunchiligiga rioya qilish including corporate management, compliance with government authority requests for information, liens, garnishments and tax compliance	Shaxsiy guvohnoma ma'lumotlari Mehnat qilish huquqiga oid ma'lumotlar Ish bilan ta'minlashga oid ma'lumotlar Ish haqi va to'lovlar yoki imtiyozlar bilan bog'liq ma'lumotlar <i>Normalarga rioya qilishning tabiyatiga bog'liq holda, 3 Bo'limda sanab o'tilgan Shaxsiy Ma'lumotlarning boshqa toifalari qo'llanilishi mumkin.</i>	Ma'lumotlarni qayta ishlash Johnson Controls bo'ysunadigan yuridik majburiyatlar uchun zarurdir.

Ish o'rinlarini boshqarish, Sayohat va xarj dasturlari, hamda ichki salomatlik va xavfsizlik dasturlari kabi ish o'rnida mehnatni tashkil qilish	Shaxsiy guvohnoma ma'lumotlari Ish bilan ta'minlashga oid ma'lumotlar Sayohat va pasportga tegishli ma'lumotlar Ish haqi va to'lovlar yoki imtiyozlar bilan bog'liq ma'lumotlar Shaxsiy Ma'lumotlarning alohida toifalari Sog'liq va kasallik bilan bog'liq ma'lumotlar Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasiga oid ma'lumotlar	Ma'lumotlarni qayta ishlash siz bilan bizning o'rtamizda tuziluvchi shartnoma, masalan, xodimlarimiz uchun ishchi kuchimizni idora qilish va safarlar, xarajarat, mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi dasturlarini amalga oshirish uchun bizga zarurdir. Majburiyatlarni bajarish va mehnat qonunchiligiga muvofiq huquqlarni amalga oshirish uchun qayta ishlash zarur.
Ichki hisobot va audit	Shaxsiy guvohnoma ma'lumotlari Ish bilan ta'minlashga oid ma'lumotlar Ish haqi va to'lovlar yoki imtiyozlar bilan bog'liq ma'lumotlar Muvofiqlik va tavakkalchiliklarni boshqarish uchun zarur ma'lumotlar <i>Hisobot yoki audit tabiiyatiga bog'liq holda, 3 Bo'limda sanab o'tilgan Shaxsiy Ma'lumotlarning boshqa toifalari qo'llanilishi mumkin.</i>	Ma'lumotlarni qayta ishlash ichki hisobotni yuritish va audit olib borishda qonuniy manfaatlarimizni ro'yobga chiqarish uchun zarurdir.
Johnson Controls, uning ishchi kuchini, hamda ommani shikastlanish, o'g'irlik, qonuniy javobgarlik, firibgarlik yoki suiste'mol yohud boshqa zararlardan muhofaza qilish	Shaxsiy guvohnoma ma'lumotlari Mehnat qilish huquqiga oid ma'lumotlar Oila va favqulodda vaziyatlarda bog'lanish uchun batafsil ma'lumotlar Johnson Controls aktivlaridan foydalanish bilan bo'liq ma'lumotlar Mobil qurilmalarni boshqarish uchun to'plangan ma'lumotlar Muvofiqlik va tavakkalchiliklarni boshqarish uchun zarur ma'lumotlar Shaxsiy Ma'lumotlarning alohida toifalari Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasiga oid ma'lumotlar Biometrik axborot Sudlanganlik to'g'risida ma'lumot	Ma'lumotlarni qayta ishlash Johnson Controls, uning ishchi kuchini, hamda ommani shikastlanish, o'g'irlik, qonuniy javobgarlik, firibgarlik yoki suiste'mol yohud boshqa zararlardan muhofaza qilishda qonuniy manfaatlarimizni ro'yobga chiqarish uchun zarurdir. Ma'lumotlarni qayta ishlash Johnson Controls bo'ysunadigan yuridik majburiyatlar uchun ham zarur bo'lishi mumkin. Majburiyatlarni bajarish va mehnat qonunchiligiga muvofiq huquqlarni amalga oshirish uchun qayta ishlash zarur.

Trening va mahsulot namoyishlari	Shaxsiy guvohnoma ma'lumotlari Ta'lim va treyning bilan bog'liq ma'lumotlar Tijorat bilan bog'liq ovoz/tasvir yozuvlari	Ma'lumotlarni qayta ishlash o'quv mashg'ulotlari o'tkazish va mahsulot namoyishlarini yo'lga qo'yishda qonuniniy manfaatlarimizni ro'yobga chiqarish uchun zarurdir.
Xodimlar ishtirok etadigan yoki ular bilan aloqador mahsulotni ishlab chiqish	Shaxsiy guvohnoma ma'lumotlari Ish bilan ta'minlashga oid ma'lumotlar <i>Mahsulot ishlab chiqish tabiiyati bog'liq holda, 3 Bo'limda sanab o'tilgan Shaxsiy Ma'lumotlarning boshqa toifalari qo'llanilishi mumkin.</i>	Ma'lumotlarni qayta ishlash yangi mahsulotlarni ishlab chiqish va ularning samaradorligini baholashda qonuniniy manfaatlarimizni ro'yobga chiqarish uchun zarurdir.
Qonuniy tadbirkorlik maqsadlarida qurilmalardan, tarmoqlarimizdan, hamda internet trafigidan foydalanishni nazorat qilish va suzgidan o'tkazish, jumladan: • Ma'lumotlar Tizimlarining yetarlicha Xolisligini ta'minlash, hamda jinoiy qilmishlarni, shu jumladan kiber-jinoyatni aniqlash va oldini olish; • Ma'lumotlarni himoyalash, jumladan, shaxsiy ma'lumot, maxfiy ma'lumot va o'ta muhim qimmatli tijorat ma'lumotini barbod bo'lishi, yo'qolishi, o'zgaratirilishi, qonunga zid foydalanish, fosh qilinishi yoki qonunga zid ravishda dasturiy tizim himoyasini buzib kirishlarga cheklanmasdan joriy etiladi; • O'zining Ma'lumot Tizimlarining samarali ishlashini ta'minlaydi; • Amaldagi tartibga soluvchi va o'zini-o'zi tartibga soluvchi majburiyatlarga muvofiqlikni ta'minlash; • Johnson Controls-ning Internetdan foydalanish va Etika me'yorlari bo'yicha tartib-taomillariga muvofiq kelmaslik holatlarini aniqlash. Eslatma: Shaxsiy qurilmangizda mobil qurilmalarni boshqarish dasturi o'rnatilgan bo'lsa (Johnson Controls emaili, tarmoq xizmatlari va ma'lumotlariga kirish uchun), Johnson Controls Johnson Controls mobil xavfsizlik talablariga javob berish uchun qurilma xavfsizlik sozlamalariga o'zgartirishlar kiritishi talab qilinishi mumkin. Yuqoridagi maqsadlar uchun bu qurilmadan foydalanishni har qanday monitoring qilish va/yoki filtrlash korporativ ilovalar orqali cheklangan. Qo'shimcha ma'lumot uchun quyidagi "Biz bilan qanday aloqa qilish mumkin" bo'limiga qarang.	Shaxsiy guvohnoma ma'lumotlari Johnson Controls aktivlaridan foydalanish bilan bo'liq ma'lumotlar Mobil qurilmalarni boshqarish dasturini uchun to'plangan ma'lumotlar Muvofiqlik va tavakkalchiliklarni boshqarish uchun zarur ma'lumotlar	Ma'lumotlarni qayta ishlash ma'lumot tizimlarimizning yaxlitligini ta'minlashda qonuniniy manfaatlarimizni ro'yobga chiqarish uchun zarurdir. Ma'lumotlarni qayta ishlash Johnson Controls bo'ysunadigan yuridik majburiyatlar uchun ham zarur bo'lishi mumkin.

5. Shaxsiy Ma'lumotlardan Foydalanuvchilar

Oluvchi toifasi	Shaxsiy ma'lumotlaringizni oshkor qilinishi maqsadi
Boshqa Johnson Controls tashkilotlari	Biz 4-Bo'limda sanab o'tilgan maqsadlarda nomimizdan xizmat ko'rsatuvchi Johnson Controls boshqa tashkilotlari xususiy ma'lumotlarini oshkor qilishimiz mumkin.
Qo'shma korxonalar, subpudratchilar, sotuvchi yoki yetkazib beruvchilar	Biz 4-Bo'limda sanab o'tilgan maqsadlarda nomimizdan xizmat ko'rsatuvchi qo'shma korxonalar, subpudratchilar, sotuvchi yoki yetkazib beruvchilarga xususiy ma'lumotlarni oshkor qilishimiz mumkin.
Yangi tashkil qilingan yoki qo'lga kiritilayotgan tashkilot	Johnson Controls o'z tijoratining bir qismini yoki hammasini qo'shib yuborish, sotish yoki boshqaga o'tkazishda ishtirok etgan taqdirda, shaxsiy ma'lumotlar yangi tashkil qilingan yoki qo'lga kiritilayotgan tashkilotga oshkor qilinishi mumkin.
Uchinchi tomon xizmat ta'minotchilari	Shaxsiy ma'lumotlar IT-provayderlar, imtiyozlar provayderlari, ish haqi provayderlari va maslahatchilar (masalan, advokatlar, buxgalterlar va auditorlar) kabi biznes faoliyatimizni amalga oshirishda bizga yordam beruvchi tashqi xizmat ko'rsatuvchi provayderlari bilan bo'lishilishi mumkin.
Shaxsiy ma'lumotlarni [qonunan] oshkor qilishimiz kerak bo'lgan Oluvchilari	Biz Johnson Controls bo'ysunadigan yuridik majburiyatlarga, masalan, tadbqiq qiluvchi sud qarori yoki qonunga rioya qilish maqsadlarida shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilishimiz mumkin.
Biz tomonimizdan shaxsiy ma'lumotlarning oshkor qilinishiga siz rozilik bergan oluvchilar	Biz shaxsiy ma'lumotlarni oluvchilarga siz oshkor qilinishiga rozilik berganingizdagina,, masalan, ishga joylash davomidagi tekshiruvlar uchun bunday oshkor qilish lozim bo'lgan taqdirda, oshkor qilishimiz mumkin.
Odam umriga tahdid soluvchi favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda, shaxsiy ma'lumotlarni olishi mumkin oluvchilar	Umriga tahdid soluvchi favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda o'rinli ravishda zarur bo'lgan taqdirda, biz uchunchi shaxslarga, misol uchun o'shig'ich yordam ko'rsatish imkonini berish uchun, shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilishimiz mumkin.

6. Halqaro Uzatuvlar

Shaxsiy ma'lumotingiz uzatilishi mumkin bo'lgan uchinchi tomonlar, sho'ba korxonalar va filiallar dunyoning ko'plab mamlakatlari, jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlari, Hindiston, Slovakiya va Meksikada joylashgan bo'lishi mumkin; shuning uchun ma'lumotlar maxfiylik to'g'risidagi qonunlari siz yashayotgan mamlakatnikidan boshqacha bo'lgan mamlakatlarga jo'natilishi mumkin. Muayyan vaziyatlarda, shu boshqa davlatlardagi sudlar, huquqni muhofaza qilish organlari, tartibga soluvchi organlar yoki xavfsizlikni saqlovchi organlar sizga tegishli shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish huquqiga ega bo'lishi mumkin. Amaldagi qonun talablariga muvofiq, Shaxsiy Ma'lumotingiz yetarlicha himoya darajasi bilan ta'minlanishi maqsadida chora ko'ramis, jumladan u shaxsiy ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun yuksak standartlarimizni bayon qilib, bizning Korparativ Majburiy Qoidalarimizni, hamda Bir qolipdagi Shartnoma Shartlarimizni o'z ichiga oladi. Zarurat hollarda, mahalliy qonunga muvofiq, sizning roziligingizni so'rashimiz mumkin.

APEC Chegaralararo Maxfiylik Qoidali Tizimi (CBPR): Bu Maxfiylik eslatmasida tavsiflangan Johnson Controls maxfiylik amaliyotlari APEC Chegaralararo Maxfiylik Qoidali Tizimiga mos keladi. APEC CBPR tizimi tashkilotlarga APECga a'zo iqtisodiyotlar o'rtasida uzatiladigan shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun asos yaratadi. APEC platformasi haqidagi batafsil ma'lumotni [bu yerdan](#) olish mumkin. APEC CBPR sertifikatimiz holatini ko'rish uchun [by verga](#) bosing.

Evropa Iqtisodiy hududi ("EIH"), Buyuk Britaniya va/yoki Shveysariyadan o'tkazmalar uchun: Evropa Iqtisodiy hududi ("EIH"), Buyuk Britaniya va/yoki Shveysariyadan tashqaridagi ba'zi yurisdiksiyalar EIH/Buyuk Britaniya va/yoki Shveysariya standartlariga muvofiq, munosib himoya meyorlari bilan ta'minlovchi sifatida Evropa komissiyasi, Buyuk Britaniya hukumati va/yoki Shveysariya hukumati tomonidan tan olingan: EIH yurisdiksiyasining munosib ro'yxati [bu yerdamavjud](#), Buyuk Britaniyaning munosib yurisdiksiyasi ro'yxati [bu yerdamavjud](#) va Shveysariyaning munosib yurisdiksiyasi ro'yxati [bu yerdamavjud](#). EIH, Buyuk Britaniya va/yoki Shveysariyadan Evropa komissiyasi, Buyuk Britaniya hukumati va/yoki Shveysariya hukumati (vaziyatdan kelib chiqib) munosib deb topmagan davlatlarga o'tkazish uchun, shaxsiy ma'lumotlaringizni himoya qilish uchun tegishli organ tomonidan ma'qullangan standart shartnoma qoidlari kabi ishonchli choralarni ko'rdik. EIH, Buyuk Britaniya va/yoki Shveysariyadagi xodimlar "Biz bilan qanday bog'lansa bo'ladi" bo'limiga muvofiq biz bilan bog'lanib, ushbu chorning nususini olishi mumkin

Maxfiylik yoki biz tomondan qoniqarli hal qilinmagan ma'lumotlardan foydalanishga doir muammolar mavjud bo'lsa, AQSHda joylashgan tashqi nizolarni hal qilish provayderimizga (bepul) murojaat qiling: <https://feedback-form.truste.com/watchdog/request>.

7. Ma'lumotlarni Saqlab turish

Shaxsiy ma'lumotlaringiz qaysi maqsadda to'plangan bo'lsa, o'sha maqsadga yetishish uchun qancha vaqt kerak bo'lsa, o'shancha vaqt, odatda, har qanday shartnoma munosabatlarining davomiyligi va bundan keyingi amaldagi qonunda qonuniy tarzda talab qilingan yoki ruxsat berilgan har qanday vaqt oralig'ida saqlab turiladi. Johnson Controls Qaydnomalarini Saqlab turish jadvalarini quyidagi manzildan topishingiz mumkin: <https://my.jci.com/Ethics/Pages/RIM.aspx>.

8. Himoya va Xavfsizlik

Johnson Controls Shaxsiy Ma'lumotlarni yoqolish, su'iste'mol qilish va qonunga zid foydalanish, fosh qilish, o'zgartirish va buzishdan himoyalash maqsadida oldindan choralar ko'radi. Sizing Shaxsiy Ma'lumotlaringiz saqlangan ma'lumot tizimlarni himoyalash uchun tegishli texnik va tashkiliy choralarini ko'rdik, hamda biz pudratchi va xizmat ta'minotchilarimizdan shartnoma va boshqa vositalar orqali Shaxsiy Ma'lumotlaringizni himoyalashini talab qilamiz.

9. Haq-huquqlaringiz

Haq-huquqlaringiz mahalliy qonunga asoslanadi. Johnson Controls quyida keltirilganlar kabi ma'lumotlarni maxfiy saqlash huquqlari bo'yicha talablarga javob berishda mahalliy qonun doirasida yuritiladi.

- **Ma'lumotlar va Kirish huquqi:** Shaxsiy Ma'lumotingizdan foydalanish huquqini so'rashingiz, qo'shimcha ma'lumot ta'minlanishini, hamda Shaxsiy Ma'lumotingizning nusxasini berishini so'rashingiz mumkin. Ma'lumot va Kirish huquqi ba'zi cheklovlariga ega. Misol uchun, ma'lumotdan foydalanish huquqi(i) qisqa vaqt oralig'ida qayta kirish holatida, yoki (ii) bunday foydalanish huquqi bilan ta'minlayotgan yoki tuzatish boshqa kishining maxfiyligiga murosa qilishi yoki kompaniyaning maxfiy ma'lumotlarini sababsiz oshkor qilishda rad etilishi mumkin.
- **Tuzatish:** Yangilash yoki eskirgan Shaxsiy Ma'lumotingizni tuzatishni va/yoki yangilashni so'rab murojaat qilishingiz mumkin.
- **O'chirish:** Siz Shaxsiy Ma'lumotingizni o'chirtirishga haqlisiz. Bu huquq cheklovlariga ega.
- **Cheklov:** Siz Shaxsiy Ma'lumotingizni cheklashga haqlisiz. Cheklov Shaxsiy Ma'lumotingiz Johnson Controls-dagini saqlanishini, hamda shikoyatingiz muhokama etilayotganda, boshqa kelgusida o'zlashtirilmasligini anglatadi.
- **Qayta ishlashga e'tiroz:** Ma'lum turdagi o'zlashtirishga qarshilik ko'rsatishga haqlisiz. Bu turlar mijozlar bilan to'g'ridan-to'g'ri ishlash, tadqiqot yoki statistika maqsadlarida ma'lumotni o'zlashtirish va qonuniy manfaatlar asosida ma'lumot o'zlashtirishdir. Qonuniy manfaatlar asosida ma'lumot o'zlashtirishga qarshilik ko'rsatish huquqi Johnson Controls tomonidan sizning qarshilik ko'rsatish huquqingizdan ustunlik qiluvchi negizlarni namoyon qilishga olib kelishi mumkin.
- **Ma'lumotlarning ko'chuvchanligi:** Ma'lumot Ko'chuvchanligini talab qilishga haqli bo'lishingiz mumkin. Ma'lumot Ko'chuvchanligi siz tomoningizdan yoki Johnson Controls tomonidan boshqa kompaniyaga oson o'tkazilishi mumkin bo'lsin uchun Shaxsiy Ma'lumotingizni bir tartibli, ko'p ishlatiluvchi va mashinada o'qiy oladigan shaklda taqdim qilishdir. Ma'lumot Ko'chuvchanligi huquqi cheklovlariga ega. Misol uchun, Ma'lumot Ko'chuvchanligi qog'oz qaydlariga daxl qilmaydi va boshqalar huquqiga yoki kompaniyaning maxfiy ma'lumotiga ziyon keltirmaydi.
- **Avtomatlashgan Qaror Qabul qilishgagina asoslangan qarorlarga bo'ysunmaslik huquqi:** Agar qarorlar qonuniy natijalar olib kelsa yoki sizga sezilarli ta'sir ko'rsatsa, Avtomatlashgan Qaror Qabul qilishgagina asoslangan qarorlarga kerak bo'lmagan huquqqa ega bo'lishingiz mumkin (ya'ni inson ishtirokisiz). Avtomatlashtirilgan Ma'lumotlarni O'zlashtirish Shaxsiy Ma'lumotingizni avtomatlashtirilgan vositalar orqali O'zlashtirishdir. Qonuniy oqibatlariga olib keladigan yoki sizga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan avtomatlashtirilgan qaror qabul qilishdan foydalanuvchi qayta ishlashni amalga oshirayotgan bo'lsak, unda siz faqat avtomatlashgan qayta ishlashga asoslangan qaror bilan qamrab olinmaslik huquqiga egasiz.

Siz yana nazorat idorasiga shikoyat qilish huquqiga egasiz.

Siz Xodimlar bilan ishlash bo'yicha mahalliy vakil yoki Maxfiylik bo'limi orqali bu huquqdan istalganini qo'llash uchun Quyidagi manzil orqali murojaat qilishingiz mumkin privacy@jci.com.

10. Majburiyatlaringiz

Shaxsiy ma'lumotlarni yangilab turing va shaxsiy ma'lumotlaringizdagi har qanday aytarli o'zgarishlar haqida bizga ma'lum qiling.

Mazkur maxfiylik to'g'risidagi bildiruv shuningdek siz bizga taqdim qilayotgan boshqa shaxslarning shaxsiy ma'lumotlariga ham tadbiiq qilinadi. Misol uchun, tibbiy sug'urta rejangizga kiritilgan shaxslar kabi mehnat imtiyozlaringizni oluvchilar va nafaqa hisoblarigizni oluvchilar, shuningdek, shoshilinch bog'lanish manbalarigiz va boshqa boqimandalarigiz uchun bog'lanish ma'lumotlaringizni oluvchilar. Mazkur xodimlarning maxfiyligi to'g'risidagi global bildiruv haqida har qanday bu kabi shaxslarga ma'lum qilish va/yoki mazkur xodimlarning maxfiyligi to'g'risidagi mazkur global bildiruvning nusxasini bu shaxslarga taqdim qilish, shuningdek ularning shaxsiy ma'lumotlarini bizga taqdim qilish huquqiga egaligingizga ishonch hosil qilish uchun javobgar bo'lasiz.

Shuningdek, biz bilan sizning munosabatingiz davomida siz olgan har qanday shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashda sizga ma'lum qilingan amaldagi qonunchilikka, tartib-taomillar, standartlar va kompaniyaning ish tartiblariga rioya qilish bo'yicha ham javobgar bo'lmaysiz. Xususan, qandaydir shaxsiy ma'lumotlarga kirish yoki uni ishingiz munosabati bilan va biz bilan sizning ishingiz uchun zarur bo'lgan hollardan tashqari har qanaqangi maqsadlarda uni foydalanish huquqini olmasligingiz kerak. Sizning biz bilan munosabatingiz tugallanishidan keyin ham bu majburiyatlar kuchida qolishini tushunasiz

11. Rozilik va Rozilikni bekor qilish

Shaxsiy ma'lumotlaringiz yoki shaxsiy Ma'lumotlarning alohida toifalarini qayta ishlash uchun ma'qullik qonuniy asos bo'lgan taqdirda, siz quyidagi privacy@jci.com (bunday bekor qilish kerak bo'lsa va/yoki amaldagi qonunchilik yo'l bergan bo'lsa) manzil orqali maxfiylik muhofazasi Bo'limimizga murojaat qilib, o'z ma'ulligingizni tekin bekor qilishingiz mumkin.

12. Ma'lumotlarni Maxfiy saqlash bo'yicha Bildiruvimizga o'zgartirish va qo'shimchalar

Biz bunday qilinishi zarurat hollarida, vaqti-vaqti bilan bu bildiruvni yangilab turamiz. Agar biror muhim o'zgartirish kiritishni taklif qilsak, bu sahifadagi eslatma orqali sizni xabardor qilamiz. Bu eslatma, shuningdek, siz yashayotgan mamlakatdagi mahalliy talablarga mos kelishi yoki ishchi-xodimning vakillik to'g'risidagi shartnomasi mavjud zarur hollarda boshqa bayonotlar bilan qo'shimcha kiritiladi.

13. Maxfiylik bo'yicha muammolar va biz bilan bog'lanish yo'llari

Bu eslatma bo'yicha sizda qandaydir savollar bo'lsa yoki Shaxsiy Ma'lumotingiz amaldagi qonun yoki ushbu bildiruvga muvofiq foydalanilmadi deya hisoblagan taqdiringizda, sizda turli tanlovlar bor:

- Quyida keltirilgan vebseytidagi Maxfiylik bo'limiga murojaat qiling. privacy@jci.com;
- Quyidagi manzil orqali ma'lumotlarni muhofaza qilish xodimingiz bilan bog'lnaing dpo@jci.com
 - Rahbaringiz yoki boshqa rahbar yoki boshqaruvchigiz bilan masalani muhokama qiling;
- Kadrlar bilan ishlash departamentiga murojaat qiling; yoki
- Shuningdek, quyidagi Johnson Controls Integrity Helpline xizmatiga murojaat qilishingiz mumkin: www.johnsoncontrolsintegrityhelpline.com.